TARIXIYLIKDAN BADIIYLIKKA QADAR: ALP ER TO‘NGA SHAXSIYATI

(Professor Abdurashid Abdurahmonov ilmiy tadqiqotlari asosida)

Nilufar Pardayeva

Samarqand davlat universiteti, 1-bosqich magistranti

ANNOTATSIYA

Mazkur maqola turkiy xalqlarning tarixiy qahramoni Alp Er To‘nganing badiiy adabiyotdagi talqini, bu siymoning tarixiy va afsonaviy obrazlarini adabiyotshunos olim, professor A.Abdurahmonov ilmiy tadqiqotlari asosida tahlil qilish masalalarini o‘z ichiga olgan bo‘lib, Alp Er To‘nga shaxsiyatining tarixiy-adabiy manbalardagi talqinini qiyosiy jihatdan yoritib beradi. Shuningdek, maqolada Alp Er To‘nga obrazining turkiy va jahon xalqlari ijodidagi badiiy qahramonlar bilan mushtarak va farqli jihatlari, Alp Er To‘nga shaxsining xarakter xususiyatlari, yuksak insoniy fazilatlarining g‘oyaviy-badiiy ahamiyati tahlil etiladi.

Kirish so‘zlar: *Alp Er To‘nga, Afrosiyob, “Devonu lug‘otit-turk”, “Qutadg‘u bilig”, “Tarixi muluki Ajam”, to‘nga, jangnomalar, Romitan, Alp Er To‘nga marsiyasi, Alp Er To‘nga dostoni.*

ANNOTATION

This article examines the literary interpretation of Alp Er Tonga, a historical hero of the Turkic people, and analyzes his historical and mythical images based on the scholarly research of literary critic Professor A.Abdurakhmonov. It provides a comparative analysis of how Alp Er Tonga’s personality is interpreted in historical and literary sources. Furthermore, the article explores the shared and distinct features of Alp Er Tonga’s image in comparison with literary heroes in the folklore and literature of Turkic and global people, while also analyzing his character traits and the ideological and artistic significance of his high human virtues.

Keywords: *Alp Er Tonga, Afrasiab, "Diwan lughat al-turk", "Kutadgu bilig", "Tarikh-i muluk-i Ajam", tonga, epic battle stories, Romitan, elegy of Alp Er Tonga, the epic of Alp Er Tonga.*

Qadimgi turkiy adabiyotda ham tarixiy, ham adabiy, ham afsonaviy shaxs sifatida talqin etiladigan obrazlardan biri turkiy xalqlarning mard va jasur xoqoni Alp Er To‘nga hisoblanadi. Bu siymo bilan bog‘liq ilmiy tadqiqotlar tarixiy, qiyosiy-tipologik metodlarda va badiiy obraz darajasida qadimgi davrlardan to hozirgi davr adabiy jarayoniga qadar olib borilmoqda. Xususan, Alp Er To‘nga shaxsi bilan bog‘liq ma’lumotlar tarixiy va adabiy manbalarda: Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘otit-turk”, Yusuf Xos Hojib Bolosog‘uniyning “Qutadg‘u bilig”, Abu Rayhon Beruniyning “Qonuni Mas’udiy” asarlari, Abulqosim Firdavsiyning “Shohnoma”si, Alisher Navoiyning “Tarixi muluki Ajam” kitobida, keyingi davrlar o‘zbek adabiyotshunosligida esa Abdurauf Fitrat, X.Doniyorov, M.Ibrohimov, Sh.Xolmatov, N.Rahmonov, A.Abdurahmonov tadqiqotlarida uchraydi. E’tiborli jihat shundaki, bu obraz kelib chiqishi va badiiy adabiyotga kirib kelishi, tarixiy yoki afsonaviy shaxs ekanligi xususidagi mulohazalar turlicha. Bunday yondashuvlarni umumlashtirgan va qiyoslagan holda asosli faktlar va dadil ilmiy xulosalar taqdim etgan olim, professor Abdurashid Abdurahmonovning bir qator izlanishlari adabiyotshunosligimizda muhim tadqiqotlardan bo‘ldi. Bu o‘rinda olimning “Alp Er To‘nga shaxsiyati va adabiyot”, “Afrosiyob va fors-tojik adabiyoti”, “Alp Er To‘nga (Afrosiyob) abadiyati”, “Alp Er To‘nga” (qahramon shaxsiyati va doston matni) risolalari, “Alp Er To‘nga (Afrosiyob)ga oid adabiy-tarixiy manbalar” avtoreferati ayniqsa yuksak ilmiy qiymatga molik. Bu tadqiqotlar yurtimizning atoqli professor olimlari tomonidan ham alohida e’tirof etiladi. Filologiya fanlari doktori, professor Ibodulla Mirzayev “Devonu lug‘otit-turk”dagi she’riy parchalar ustida ish olib borgan Abdurauf Fitrat, F.Kuprulizoda, I.V.Stebleva kabi adabiyotshunoslarning ishlarini davom ettirgan olim sifatida A.Abdurahmonov nomini alohida ta’kidlaydi: “A.Abdurahmonov devonda turkiylarning miloddan oldingi asrlarda yashagan

ulug‘ xoqoni Alp Er To‘nga (Afrosiyob) haqida yaratilgan dostonning ma’lum bir qismi saqlanganligini asosladi… O‘zbekiston FA muxbir a’zosi B.Valixo‘jayev olimning bu boradagi mehnatini baholar ekan, A.Abdurahmonovning Alp Er To‘nga dostoni matnini tiklash yo‘lidagi izlanishlari jahon turkiyshunos olimlarining ishlari qatorida o‘rin olishga haqlidir deb yozgan edi. Shu paytgacha adabiyotshunoslikda yunonlarning turkiy adabiyotga ta’siri haqida gapirilardi. A.Abdurahmonov turkiylarning miloddan avvalgi yunon adabiyotiga ta’siri masalasini dadil ayta oldi[1.10-11-b]. Darhaqiqat, Alp Er To‘nga shaxsiga xos xususiyatlar, qahramonliklar va hayotida yuz bergan voqealar ko‘plab xalqlar adabiyotida badiiy obraz va syujet sifatida ko‘chib borganligini ko‘rishimiz mumkin. A.Abdurahmonov bu obrazning antik davr yunon adabiyoti, fors-tojik, rus xalq og‘zaki ijodidagi eposlar va jangnomalarda o‘xshashlik va umumiylik jihatlari mavjud qahramonlar bilan qiyoslaydi. Natijada bu qahramon badiiyati asosida shakllangan adabiy asarlar negizida aynan bir tarixiy shaxs – Alp Er To‘nga turganligini dalillab beradi. Alp Er To‘nga nomi turkiy xalqlar ijodida uchrasa, Afrosiyob fors-tojik adabiyotida qo‘llaniladi. Turkiy adabiyotda bahodir, pahlavon o‘g‘lonlarni “alp” nomi bilan atash keng tus olgan edi. Er so‘zi ham xuddi shunga yaqin: er kishi, er yigit, ya’ni botir, sheryurak ma’nolarini anglatadi. To‘nga so‘zi esa yo‘lbarsga monand hayvon nomi bo‘lib, bu uch so‘z umumiy olganda jasur, dovyurak va arslondek kuchli inson sifatlarini namoyon etadi. A.Abdurahmonovning “Alp Er To‘nga shaxsiyati va adabiyot” risolasida bu qahramonning tarixiy yoki afsonaviy shaxs bo‘lganligiga oydinlik kiritish maqsadida ko‘plab asosli tarixiy manbalarga murojaat etiladi. Jumladan, “Avesto”, yunon tarixchisi Gerodot ma’lumotlari, Beruniyning “Qonuni Mas’udiy”, M.Koshg‘ariyning “Devonu lug‘otit-turk”, Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” asarlari, A.Firdavsiyning “Shohnoma”si, A.Navoiyning “Saddi Iskandariy” dostoni va “Tarixi muluki Ajam” kitobida Alp Er To‘nganing tarixiy shaxs bo‘lganligi, uning aql-zakovatli, kuchli xoqon ekanligi, forsiy manbalarda esa Afrosiyob nomi bilan atalishi borasidagi faktlarga tayanilib, ilmiy xulosalarga kelingan. Bundan

tashqari, olim Alp Er To‘nga obrazining jahon xalqlari og‘zaki va yozma badiiy adabiyotidagi turli talqinlarini tadqiq qiladi, xususan, gruzin adabiyoti durdonalaridan “Yo‘lbars terisini yopingan pahlavon” asarini chuqur tadqiq qilib shunday xulosaga keladi: “Shota Rustavelining “Yo‘lbars terisini yopingan qahramon” dostoni qadimgi Sharq rivoyatlari mahsulidir. Asarga asos qilib olingan majoziy mantiq – yo‘lbars terisidagi chopon kiyish va shu asosda qahramonning yo‘lbarsdek bahodirligini ko‘rsatish ham qadimgi sharq, jumladan, turkiy xalqlarning urf-odatlari, ularning adabiy an’analariga xos bo‘lgan xususiyatdir [2.31-b]. A.Abdurahmonov fors-tojik adabiyotidagi Afrosiyob obrazi, rus xalq jangnomalaridagi Aliber, Oliber qahramoni ham aynan Alp Er To‘nga siymosiga xos xususiyatlarni namoyon qilishini asoslab berdi. Shu tariqa bu obrazning tarixiy ildizlari va jahon xalqlari ijodi bilan mushtarak jihatlarini tadqiq etarkan, Alp Er To‘nganing xarakter xususiyatlariga ham alohida diqqat qaratadi: “Dissertatsiyada Afrosiyob shaxsiyati bilan bog‘langan o‘n to‘rt afsonaning matni keltirildi. Ularga nazar tashlar ekanmiz, Afrosiyob faqat yovuzlik belgisi emas, ayni paytda u mehribon inson, o‘z xalqi taqdiri uchun javobgar qahramon, kurashda yengilmas pahlavon, shuningdek, ba’zan ojiz qahramon sifatida ham ko‘rinadi… Afsonalar Afrosiyobning pahlavon, jasur, ayni paytda adolatparvar, tinchliksevar, Eron shohlarining taqdiriga hurmat bilan qaragan xoqon bo‘lganligini inkor etmaydi[3.33-b]. Tarixdagi ijtimoiy-siyosiy ziddiyatlar va urushlar har bir millat talqinida o‘z qarashlari bilan adabiyotda aks etganligini inobatga olgan holda professor A.Abdurahmonov Alp Er To‘nga – Afrosiyob shaxsiyatini ochib berishda turlicha yondashuvlarni xolisona umumlashtiradi.

Qahramonning xoqonlik faoliyatidagi adolat, tadbirkorlik, oqilona siyosati, shaxs sifatidagi xislatlaridagi hunarliligi, ilmliligi, aql-zakovatga boyligi, g‘amxo‘r va mehribon ota namunasi badiiy adabiyotda ham uning mard, jasur va elparvar hukmdor, yuksak insoniy xislatlar sohibi obrazida namoyon bo‘lishiga asos sanaladi. Masalan, olim tadqiqotlarida keltirilgan sakkizinchi afsona – “Afrosiyob mehribon ota”da shunday bayon qilinadi: “Aytadilarki, Afrosiyobning

bir qizi bo‘lib, uning doimo boshi og‘rir edi. Romtinga kelib turib qolganligidan keyin bu yerning havosi muvofiq kelib darddan xalos bo‘ldi va bu joyga”oromi tan” – “tan oromi” deb nom qo‘ydi. Oddiy xalq esa buni “Romitin” dedilar.”[4.15]. Ham yurt hukmdori, ham bir inson o‘laroq bunday fazilatlar va e’tirofga sazovor bo‘lish uchun teran salohiyat, keng tafakkur va chuqur bilimga ega bo‘lish lozim. “Qutadg‘u bilig” asarida Alp Er To‘nga ta’rifiga bag‘ishlangan shunday satrlarni korishimiz mumkin:

Bu turk beglarinda oti belgulug,
To‘nga Alp Er erdi quti belgilug.
(Turk beglari orasida oti belgilik,
To‘nga Alp Er erdi, quti belgilik.)
Bedug bilgi birla o‘qush erdami,
Biliglik o‘qushlug‘ budun ko‘drumi.
(Bilimi- buyuk va hunarlari – talay,
Bilimli, zakovatli va xalqning sarasi.)

“Bu parchalardan ayon bo‘ladiki, Alp Er To‘nga tarixda yashagan turkiy beglar orasidagi eng taniqlisi, bilimlisi, buyugi, zakovatlisi, jahonni qo‘lga kiritishda juda ko‘plab amal va hunarga ega bo‘lgani. Demak, bu parchada Alp Er To‘ngaga berilgan sifatlar bilan dostonning muqaddima qismida xalq sevadigan shoh haqidagi qarash aynan mos keladi”[5.26-b]. Darhaqiqat, Alp Er To‘nga xalqi va yaqinlari qalbidan chuqur muhabbat bilan o‘rin olgan edi. Zotan, uning vafotiga bag‘ishlangan marsiyada ham el-yurtning og‘ir musibat qayg‘usi aks etgan fig‘onlari ifodasi buni tasdiqlaydi.

Ko‘k turklar, uyg‘ur va qoraxonli,
Tag‘in qancha turklar insof-iymonli.
Uni o‘zlariga ota deydilar,
Zafar shuhratini har yon yoydilar.
Bandalikni bajo keltirgach xoqon,
El yurt ko‘k libosga burkandi shu on.

Izzat-ikrom ila nomin yo‘qlashib,

Qoldi yoshlar to‘kib, chekdilar afg‘on” .

Xulosa qilib aytganda, butun hayoti xalq dardi, yurt ravnaqi uchun kechgan Alp Er To‘nga siymosi badiiy adabiyotimizda vatanparvarlik, xalqsevarlik, oriyat, mardlik va insoniylik fazilatlarini o‘zida mujassamlashtirgan qahramon sifatida keyingi davr badiiy ijod maydonida ham ko‘plab qahramonlarning yuzaga kelishiga asos bo‘ldi. Professor A.Abdurahmonov Alp Er To‘nga dostonini tiklash davomidagi tadqiqotlarida shunday xulosaga keladi: “Turkiylarning ulug‘ xoqoni Alp Er To‘ngani yoshlik yillaridan boshlab mamlakatni idora etish darajasiga ko‘tarilgan yo‘li, turkiy qabilalarni birlashtirish va yagona davlat tuzish siyosati, o‘z dushmanlariga qarshi shafqatsiz kurashi, pahlavonlar orasida mardlik ko‘rsatishi, matonati, xalqning unga mehr-muhabbatini umumlashtirish dostonning asosiy mavzuyi hisoblanadi”[6.35-b]. Moziy maydonidan adabiyot olamiga kirib kelgan Alp Er To‘nga shaxsiyati tarixiylikdan badiiylikka ham ko‘chgan qahramon hisoblanadi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Mirzayev I.K. Abdurashid Abdurahmonov. – Samarqand,1997.
2. Abdurahmonov A. Alp Er To‘nga shaxsiyati va adabiyot. – Samarqand, “Zarafshon” nashriyoti, 1994.
3. Abdurahmonov A. Alp Er To‘nga (Afrosiyob)ga oid adabiy tarixiy manbalar(dissertatsiya avtoreferati). – Toshkent, 1997.
4. Abdurahmonov A. Afrosiyob va fors-tojik adabiyoti. – Samarqand, “Sug‘diyona” nashriyoti, 1995.
5. Abdurahmonov A. Alp Er To‘nga (Afrosiyob) abadiyati. – Samarqand, ‘Sug‘diyona” nashriyoti, 1999.
6. Abdurahmonov A. Alp Er To‘nga. – Toshkent, “Fan” nashriyoti, 1995.